



BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENSIYALARINI MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

Meleboyev Mirkomil Xabibulayevich

Oriental universiteti Filologiya fakulteti dekani

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini muammoli ta'lim texnologiyalari vositasida rivojlantirishdagi shart-sharoitlari va ularni rivojlantirishga qo'yilgan talablar keltirilgan.

Kalit so'zlat: Kreativ, ijodkorlik, kreativ kompetensiya, muammoli ta'lim, interfaol metodlar

Kreativ fikrlash bo'lajak o'qituvchilarining mustaqil ravishda qaror qabul qilish va shular asosida harakat qilish sifatlarini rivojlantirish, boshlang'ich yo'nalishining ustivor vazifasi bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishini hisoblanadi.

An'anaviy tayyorgarlik kreativ sifatlarga ega u yoki bu mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy voqeliklariga to'liq mos kelmasligi sababli, bo'lajak o'qituvchilari bilan mashg'ulotlarni olib borishda, innovatsion usullardan foydalanish uchun obektiv shart-sharoitlar mavjud bo'lib, paydo bo'layotgan harbiy-professional va ilmiy muammolarni o'ziga xos tarzda hal qila oladigan oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash har qachongidan ham dolzarblik kasb etishligi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Bo'lajak o'qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish asoslarini amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar, o'yinlar va mehnat.


Bir so'z bilan aytganda, usullar bo'lajak o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, ammo undagi farq shundaki, muammoli o'qitish usullari ko'proq individual moyillik va kreativ sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.



Muammoli ta'limning bosh maqsadi - bo'lajak o'qituvchilarning o'rganilayotgan mavzuga doir muammolarni anglab yetishga erishish va ularni ijobiy hal eta olishga o'rgatish. Muammoli ta'limni amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyatni yuzaga keltirish.

Xususan, “muammoli ta'lim metodlarida asosiy yondashuv sifatida o'quv jarayoni haqiqiy ijodiy jarayonga taqlid qilish, muammoli vaziyatni yaratish va uni hal qilish yo'llarini modellashtirishni ta'kidlash nazarda tutiladi” [Ошибка! Источник ссылки не найден.].

“Muammoli ta'lim o'quv mashg'ulotlarini shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, unda muammoli vaziyat yaratiladi va mashg'ulot rahbari rahbarligida va bo'lajak o'qituvchilari faol mustaqil faoliyati hal qilinadi, ya'ni kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish tegishli kompetensiyalarni shakllantirish va kreativ sifatlarni rivojlantirish ko'zda tutiladi.



2.4-rasm. Muammoli vaziyatlarda bilim faoliyatlari

Demak, muammoli vazifa – bu paydo bo'lgan muammoni hal qilish uchun yangi bilimlarni izlash uchun ma'lum kognitiv harakatlarni amalga oshirishni ta'lim vazifasi o'z ichiga olgan” [2].



Muammoli ta'limning asosiy g'oyasi bilimlarni bo'lajak o'qituvchilariga tayyor holda berish ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv-savollarini bajarish asosida o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

Muammoli ta'limning psixologik komponenti yangi, munozarali, noma'lum muammoga duch kelganda uni hal qilishda turli xil, ko'pincha butunlay qarama-qarshi fikrlarni belgilaydigan yashirin ziddiyatga asoslangan murakkab nazariy yoki amaliy masala, bo'lajak o'qituvchilarini hayratga tushishi va ozroq sarosimaga tushishiga olib keladi hamda bo'lajak o'qituvchilari ijodiy izlanishlarini faollashtiradi.

Ta'lim jarayonining maksimal samaradorligiga erishish uchun muammoli vazifalarni shakllantirish asosiy mantiqiy va didatik qoidalarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak: noma'lumni ma'lumdan ajratish, noma'lumni lokalizatsiya qilish (cheklash), muammoni shakllantirishda noaniqlik mavjudligi, muammoni xal qilish uchun mumkin bo'lgan sharoitlarni aniqlash muvaffaqiyatli yechim. Materialni o'zlashtirishning psixologik xususiyatlarini, tinglovchilarning tayyorgarlik darajasini, ularning motivatsion mezonlarini hisobga olish kerak.

Muammo shundaki, bo'lajak o'qituvchilar o'zi uchun mavjud bulgan vositalarga tayangan holda hal qilish uchun qabul qilgan muammoli vaziyat, bo'lajak o'qituvchilarining bilimlar tizimini, amaliy izlanish tajribasini shakllanishiga yo'naltiriladi. Bu shuni anglatadiki, mashg'ulot rahbarining muhim vazifasi bo'lajak o'qituvchilarning bilimga bo'lgan qadriyatli munosabatini, kognitiv qiziqishini shakllantiradi.

O'quv yoki boshqa ish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar bir nechta muammoli vaziyatga ega bo'lishi mumkin. Ammo ulardan ba'zilarini qabul qiladi. Boshqacha qilib aytganda, yuzaga kelgan har bir qiyinchilik, unga ta'sir qilmaydi, balki muammoga aylanadi. Kognitiv vazifa muammoli va muammosiz bo'lishi mumkin. Muammoli kognitiv vazifa "bo'lajak o'qituvchilar uchun yangi tushunchalar, faktlar, harakat usullari" ni o'z ichiga oladi. Agar ular bo'lmasa, unda vazifa muammoli emas. Muammoning zahirida ma'lum va kerakli narsa o'rtasidagi ziddiyat yotadi.



Shu munosabat bilan muammoli vaziyatlarni yaratish uchun quyidagi qoidalarni shakllantirishimiz mumkin: birinchidan, muammoli vaziyatlar, albatta, mumkin bo‘lgan kognitiv qiyinchiliklarni o‘z ichiga olishi kerak. Kognitiv qiyinchiliklarga ega bo‘lmagan muammoni hal qilish faqat reproduktiv fikrlashga yordam beradi va muammoli ta’lim o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishishga imkon bermaydi.

Muammoli o‘qitishning kamchiliklari qatoriga axborotdan ko‘ra vaqt talab qilishi (tayyor bilimlarga ko‘ra) kiradi. Muammoli ta’lim ko‘pincha bitta darsdan tashqariga chiqadi. Ammo uning fazilatlari zaif tomonlaridan ustundir. Bo‘lajak o‘qituvchilariga kreativ sifatlarini rivojlantirishda uslubiy tizim sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq deb bilamiz[3].

Muammoning murakkabligi, bo‘lajak o‘qituvchilarining bilim saviyasi, uning intellektual salohiyati va malakasi, ularning ijodiy faoliyatlardagi ko‘nikmalari, didaktik maqsadlarga yo‘nalganligiga qarab muammoli o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilari va professor-o‘qituvchilarning o‘zaro munosabatlarida turli vaziyat va halatlar bo‘lishi ehtimol qilinadi, ya’ni muammoning turli daraja va ko‘rsatgichlari amalda bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avazboyev A.I., Pardaboyev J.E. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye 2018. 8. B. 20-25.
2. Mansurova M.X. “Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologilar va o‘qituvchi kreativligining ahamiyati”. “Science and education” scientific journal”. <https://www.iiste.org/>.
3. Musurmonqulova M.M. “Kreativ yondashuv asosida o‘qitishning didaktik ta’minotini yaratish mexanizmlari”. “Science and education” Scientific journal. 2018.y. <https://www.iiste.org/>.